

KORXONALAR EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Karrieva Yakutjan Karimovna

TDIU , “Biznes boshqaruvi” kafedrası professori, i.f.d.

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalarning eksport salohiyatiga ko‘rsatuvchi asosiy ta‘sir omillari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tahlil xalqaro ilmiy manbalar asosida olib borilib, ishlab chiqarishdan tortib marketing va logistika jarayonlarigacha bo‘lgan bosqichlarda raqamli transformatsiyaning eksportga ijobiy ta‘siri ochib berilgan. Konseptual model asosida raqamli texnologiyalar eksportni rivojlantirishda ko‘p darajali integratsiyalashuv jarayonini shakllantirishi aniqlangan. Tadqiqot nazariy yondashuvlar orqali amaliy takliflar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, konseptual model, xalqaro savdo, strategik rivojlanish.

Аннотация

В статье теоретически проанализированы ключевые факторы влияния цифровых технологий на экспортный потенциал. Анализ проведен на основе международных научных источников, охватывая этапы от производства до маркетинга и логистики. Установлено, что цифровая трансформация оказывает положительное влияние на экспорт через многоуровневую интеграцию, представленную в виде концептуальной модели. Исследование служит основой для выработки практических рекомендаций на основе теоретического подхода.

Ключевые слова: цифровые технологии, экспортный потенциал, цифровая трансформация, концептуальная модель, международная торговля, стратегическое развитие.

Abstract

This article presents a theoretical analysis of the key factors influencing export potential through digital technologies. The study is based on international scholarly sources and covers all stages from production to marketing and logistics. A conceptual model illustrates how digital transformation promotes multi-level integration in export activities. The research serves as a foundation for practical recommendations developed through a theoretical approach.

Keywords: digital technologies, export potential, digital transformation, conceptual model, international trade, strategic development.

KIRISH

Global raqobat sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va tashqi bozorga integratsiyalashuvi ko‘p jihatdan ularning eksport salohiyatiga bog‘liq. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ushbu jarayonga tubdan ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli vositalar orqali ishlab chiqarish, marketing, logistika va xizmatlar sohalarida samaradorlikning oshishi eksport faoliyatining yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, IoT, blokcheyn va boshqa raqamli echimlar kompaniyalarga xalqaro bozorlarda tezroq harakat qilish, xaridorlar bilan bevosita aloqada bo'lish hamda bozor talablariga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya eksport salohiyatining tarkibiy elementi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda eksport faoliyatini raqamlashtirish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish va logistika tizimlarini raqamli asosda boshqarish bo'yicha islohotlar boshlangan. Biroq bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjud: infratuzilma yetishmovchiligi, kichik biznesning raqamli savodxonligi pastligi hamda eksportga yo'naltirilgan raqamli strategiyalar kamligi shular jumlasidandir.

Ushbu maqola aynan shunday sharoitda raqamli texnologiyalarning eksport salohiyatiga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilmiy adabiyotlar asosida asosiy tendensiyalarni aniqlash va konseptual modelni shakllantirishni maqsad qiladi. Tadqiqot eksportning barqaror rivoji uchun raqamli vositalardan foydalanishning muhim omillarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlardagi roli sezilarli darajada ortgan. Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirishda raqamli yechimlar muhim omil sifatida ko'rilmoqda. Adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar eksportning samaradorligi, barqarorligi va ko'lamini kengaytirishda bevosita ta'sirga ega. Ushbu bo'limda xalqaro manbalar asosida raqamli transformatsiyaning eksportga ta'siri turli jihatlar bilan yoritiladi.

Birinchi navbatda, Xu va hammualliflari raqamli transformatsiya kompaniyalar eksport faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi, degan xulosaga kelishgan [1]. Ularning tadqiqoti raqamli texnologiyalar ishlab chiqarishdagi aniqlik va tezlikni oshirib, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash orqali kompaniyani global bozorda mustahkam tutib turishini ko'rsatadi. Bu yondashuv eksportda barqarorlikni ta'minlashda muhim bo'lib, boshqa manbalarda ham tasdiq topgan.

Shu bilan birga, Oh va Hwang [2] raqamli texnologiyalar yordamida korxonalar tezroq bozor signalini qabul qilishini, mijozlar bilan bevosita va raqamli aloqalar o'rnatishini, shuningdek, resurslarni aniq rejalashtirish orqali samarali ishlashini asoslab bergan.

Makroiqtisodiy miqyosdagi yondashuv esa Dawn va boshqalar tadqiqotida aks ettirilgan [3]. Mualliflar raqamli infratuzilma va savdo o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini empirik dalillar orqali isbotlagan. Ularning izlanishlarida raqamli infratuzilma ishsizlikni kamaytirishga, savdo hajmini oshirishga va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan.

Tarmoqlar kesimidagi adabiyotlar ham muhim xulosalarni taqdim etadi. Zu va hammualliflari ishlab chiqarish sohasida sun'iy intellekt, IoT va avtomatlashtirilgan tizimlarning eksportga ta'sirini chuqur tahlil qilgan [4]. Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, raqamli vositalar mahsulot ishlab chiqarishdagi ishonchlilikni oshiradi,

texnik nosozliklarni minimallashtiradi va eksport mahsulotlarining sifat darajasini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Garg va hammualliflari G20 mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqani yoritgan [5]. Ularning yondashuvi eksport salohiyatini faqat hajm bilan emas, balki sifat, ekologik samaradorlik va innovatsion yechimlar bilan ham bog'laydi.

Qishloq xo'jaligi eksporti bo'yicha Al-Ababneh va Banihani (2024) raqamli kuzatuv va logistika tizimlari yordamida mahsulot sifatini saqlab turish, yetkazib berish zanjirini optimallashtirish hamda eksportga tayyor mahsulotlarni aniq boshqarish mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Bu xulosalar xizmat ko'rsatish sohasida olib borilgan izlanishlar bilan ham mos keladi.

Masalan, Syakirunn'iam va boshqalar halal sanoat va xizmatlar eksportida raqamli strategiyalarning rolini tahlil qilib, zamonaviy IT echimlari yordamida xizmat eksporti geografiasini kengaytirish imkoniyatini ko'rsatgan [7]. Shuningdek, O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqot (Guzalova) turizm sohasida raqamli platformalarning eksportga xizmat qilishini asoslab bergan [8].

Kichik va o'rta biznes subyektlari misolida Fernando va hammualliflari Sri-Lanka tajribasini o'rganib, raqamli savdo platformalari eksportga kirish eshigini ochayotganini, ayniqsa yangi bozorlarga chiqishda katta imkoniyatlar yaratishini ta'kidlagan [9].

Nihoyat, Lihawa tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli infratuzilma xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirishi, bu esa eksport infratuzilmasini shakllantirishda asosiy vosita bo'lishini ko'rsatgan [10]. Muallifga ko'ra, davlatlar eksport salohiyatini oshirishni istasa, avvalo raqamli infratuzilma va yuridik raqamlashtirish tizimlarini rivojlantirishi lozim.

METODOLOGIYA


Mazkur tadqiqot empirik o'lchovlarga emas, balki kontent-tahlil va mantiqiy-tahliliy yondashuvlarga asoslangan. Tadqiqot doirasida eksport salohiyatiga ta'sir qiluvchi raqamli texnologiyalarni nazariy jihatdan baholash maqsad qilingan. Shu maqsadda nufuzli ilmiy bazalarda chop etilgan manbalar tanlab olindi. Ushbu manbalar mazmunan eksport, raqamli transformatsiya va iqtisodiy integratsiya mavzulariga oid bo'lib, ularning konseptual pozitsiyalari tematik jihatdan tasniflandi. Tematik kodlash orqali har bir manbadan asosiy g'oyalar ajratib olindi va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Olingan nazariy asoslar negizida raqamli texnologiyalarning eksport jarayonlariga ta'sir mexanizmini aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, sohadagi asosiy tendensiyalarni aniqlash hamda eksportni raqamlashtirish bo'yicha nazariy asos yaratish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar eksport salohiyatini shakllantirish va kengaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular eksport faoliyatini strategik, tashkiliy va operatsion bosqichlarda

optimallashtiradi. Tahlil qilingan manbalar asosida uchta asosiy konseptual yo‘nalish aniqlangan: (1) raqamli transformatsiyaning eksport jarayoniga uzoq muddatli ta’siri, (2) raqamli infratuzilmaning makroiqtisodiy omillar bilan o‘zaro aloqasi va (3) tarmoqlar kesimida raqamli strategiyalarning xususiyatlari.

Birinchi yo‘nalish sifatida, raqamli imkoniyatlar eksport faoliyatining davomiyligini oshirishi bilan ajralib turadi. Xu va hammualliflari olib borgan izlanishlarda kompaniyaning raqamli transformatsiyasi ularning xalqaro bozordagi ishtirokini barqarorlashtiruvchi asosiy omil sifatida tavsiflangan [1]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar mahsulot yetkazib berish tezligini, ma’lumotlar oqimini va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilashi orqali eksportdagi ishonch va mijoz sodiqligini kuchaytiradi. Bu jarayon, shuningdek, tashqi bozorlardagi talabga tezkor javob berish imkoniyatini oshiradi. Bunday imkoniyatlar o‘z navbatida kompaniyaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli texnologiyalarning eksport salohiyatiga ta’siri¹

Ikkinchi manba — Oh va Hwang tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli salohiyatning eksport natijalariga qanday yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Ular raqamli texnologiyalar orqali global qiymat zanjirlariga muvaffaqiyatli qo‘shilishni eksport samaradorligini oshirishning markaziy omili deb hisoblaydi [2]. Global qiymat zanjiridagi pozitsiyasini yaxshilagan korxonalar xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishga erishadi. Bu esa nafaqat eksport hajmini, balki mahsulotning sifat darajasini ham oshiradi.

Uchinchi asosiy jihat — raqamli infratuzilmaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligidir. Dawn va hammualliflari olib borgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli infratuzilma rivoji savdo hajmi va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi [3]. Ayniqsa, eksport hajmidagi o‘shish bilan birga raqamli infratuzilmaning rivojlanishi

¹ Muallif ishlanmasi

ishsizlik darajasining kamayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu orqali eksport faqat tashqi savdo vositasi bo'lib qolmasdan, iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

Sanoat tarmoqlari kontekstida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash mahsulot qiymatini oshiradi va eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni samarali ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Masalan, Zu va hammualliflari tomonidan o'rganilgan AQSh va Xitoy tajribasi raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshishi bilan savdo balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatilishini ko'rsatadi [4]. Bu tadqiqot raqamli ishlab chiqarish vositalarining — sun'iy intellekt, IoT, avtomatlashtirilgan tizimlar — xalqaro savdo strukturasi integratsiyalashganligini tasdiqlaydi.

Garg va hammualliflari esa G20 davlatlari misolida olib borgan tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot va aylanuvchi iqtisodiyotning uyg'unlashuvi eksportni rivojlantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi [5]. Raqamli yechimlar atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish bilan birga, resurslardan samarali foydalanish orqali eksport mahsulotlarining qiymat zanjirini uzluksiz ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqamli texnologiyalar eksportga tayyor mahsulotlarni samarali ishlab chiqish va yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Al-Ababneh va Banihani tomonidan taqdim etilgan izlanishda zamonaviy texnologiyalar yordamida marketing, logistika va kuzatuv tizimlarini yaxshilash orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari xalqaro bozorga tez va aniq yetkazilayotgani ta'kidlangan [6]. Ularning tahliliga ko'ra, raqamli vositalar orqali mahsulot sifati nazorat qilinishi va zanjirning har bir bosqichi monitoring qilinishi eksportni yanada ishonchli va sifatli qiladi.

Xizmatlar sektori misolida halol sanoat va turizm sohalarida ham raqamli texnologiyalarning o'rni ortib bormoqda. Syakirunn'iam va hammualliflari halal sanoatning global integratsiyasida raqamli strategiyalarning ijobiy ta'sirini ta'kidlab o'tgan [7]. Shu bilan birga, O'zbekistonning turizm sohasida pandemiyadan so'nggi davrda raqamli echimlar xizmat eksportini tiklashga muhim asos bo'lgan [8]. Bu sohalarida raqamlashtirish xizmat ko'rsatish sifati va ishonchliligini oshiradi.

Yengil sanoat va kichik biznes subyektlari uchun esa raqamli transformatsiya eksport faoliyatining boshlang'ich bosqichida o'ta muhim vositaga aylangan. Sri-Lanka tajribasida olib borilgan tadqiqotda korxonalar elektron savdo platformalari orqali yangi bozorga chiqqanligi, real vaqt buyurtma boshqaruvi va raqamli to'lov tizimlari orqali mijozlar bilan aloqalarini kengaytirgani ko'rsatilgan [9]. Bunday yondashuv kichik korxonalarni global bozorga tez va xavfsiz chiqishga tayyorlaydi.

Lihawa tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa raqamli infratuzilma xorijiy investitsiyalar oqimiga va eksport infratuzilmasining shakllanishiga qanday ta'sir qilayotganini tahlil qiladi [10]. Unda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi xalqaro logistika markazlari, erkin iqtisodiy zonalar va boshqa eksportga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar bilan o'zaro bog'liq ekani qayd etilgan. Bu esa milliy darajadagi eksport salohiyatini tizimli yondashuvlar bilan oshirish imkonini yaratadi.

Umumlashtirib aytganda, raqamli texnologiyalar eksport salohiyatini oshirishda ko‘p darajali rol o‘ynaydi. Ular strategik darajada qaror qabul qilishni tezlashtiradi, tashkiliy darajada operatsiyalarni soddalashtiradi va amaliy darajada mahsulot yoki xizmatni xalqaro bozorlarga samarali tarzda olib chiqishni ta‘minlaydi. Har bir tarmoq va iqtisodiy model doirasida bu texnologiyalar eksport jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida raqamli texnologiyalar eksport salohiyatini oshirishda kompleks va ko‘p yo‘nalishli rol o‘ynashi aniqlangan. Xususan, raqamli yechimlar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahsulot sifatini barqarorlashtirish, logistika va ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish orqali xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, kompaniyalar raqamli vositalar yordamida iste‘molchilar bilan real vaqt rejimida aloqada bo‘lish, bozordagi o‘zgarishlarga tez javob qaytarish va shaffof boshqaruvni ta‘minlash imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa eksport faoliyatining barqaror va raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham eksportni boshlash yoki kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq bu imkoniyatlarning to‘liq amalga oshirilishi uchun zarur infratuzilmaviy va institutsional shart-sharoitlar yaratilishi muhim.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish — eksportga yo‘naltirilgan hududlarda yuqori tezlikdagi internet, elektron to‘lov va raqamli logistika tizimlarini kengaytirish zarur.

2. Kichik biznes uchun raqamli savodxonlikni oshirish — eksport salohiyati mavjud, biroq raqamli texnologiyalardan foydalana olmayotgan korxonalar uchun amaliy trening va ko‘mak dasturlari tashkil etilishi lozim.

3. Eksportni raqamlashtirish bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish — raqamli savdo platformalari, elektron kontrakt tizimlari, eksport monitoring vositalarini huquqiy va texnik jihatdan tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.

4. Sohaviy yondashuvni kuchaytirish — qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda eksport siyosatlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

5. Xalqaro hamkorlikni faollashtirish — ilg‘or davlatlar tajribasidan foydalanish, raqamli texnologiyalar transferi va ilmiy-texnik hamkorlik eksportning raqamli asrga mos modelini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni eksport strategiyalariga izchil integratsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Bu yo‘nalishdagi izchil siyosat va ilmiy asoslangan qarorlar eksport salohiyatining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xu, X., Chen, X., Yang, J., & Li, Q. (2025). Digital transformation and export duration: Implications for firm financial performance. *Journal of Innovation & Knowledge*. <https://doi.org/10.1016/j.jik.2024.100395>
2. Oh, S., & Hwang, S. (2025). How does digital capability translate into export performance? The critical mediating role of GVC upgrading. *Journal of International Business*. <https://doi.org/10.1016/j.jibus.2025.100118>
3. Dawn, L., Verma, A., & Manglani, H. (2025). ICT, trade, economic growth, and unemployment nexus: Evidence from the Indian Ocean Rim. *Sustainable Futures*, 9, 100231. <https://doi.org/10.1016/j.sftr.2024.100231>
4. Zu, W., Gu, G., & Lei, S. (2024). Does digital transformation in manufacturing affect trade imbalances? Evidence from the US and China. *PLoS ONE*, 19(5), e0299723. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0299723>
5. Garg, V., Prasad, B., & Sharma, A. (2025). Circular economy and Industry 4.0: Pathways toward SDGs in G20 countries. *Sustainable Earth*, 8(1), 62. <https://doi.org/10.1186/s42162-025-00581-x>
6. Al-Ababneh, H. A., & Banihani, T. (2024). Optimization of supply chains and marketing in the agricultural sector using innovative technologies. *ResearchGate*. <https://www.researchgate.net/publication/396204799>
7. Syakirunn'iam, L., et al. (2023). Innovation strategies and technological development in halal industry: Toward global market integration. *IJHI Journal*. <https://journal.uui.ac.id/IJHI/article/download/43593/19022>
8. Ibragimovich, T. K. (2024). Strategic development in Uzbekistan's tourism industry: Post-pandemic digital solutions. *ACOPEN Journal*. <https://acopen.umsida.ac.id/index.php/acopen/article/download/12817/3480>
9. Abeyruwan, N. Y., & Weerasuriya, G. (2025). Digitalization and export in the apparel sector: A Sri Lankan perspective. *SAJBI*, 5(1), 35–48. <https://sajbi.sljol.info/articles/75/files/68ec656d2e927.pdf>
10. Lihawa, R. M. (2025). FDI and digital technology growth in Tanzania: Challenges and policy pathways. *NG Journal of Social Development*, 18(1). <https://www.ajol.info/index.php/ngjsd/article/view/307989>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**